

DFF – “Angren Insulation” / “Ecoclimat” GET (Yashil iqtisodiyotga o‘tish)

Mamlakat:	O‘ZBEKISTON
Loyiha raqami:	52136
Faoliyat sohasi:	Ishlab chiqarish va xizmatlar
Bildirishnoma turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi:	B
Tasdiqlanish muddati sanasi:	2021-yil, 24-avgust
Qaysi bosqichdaligi:	Tasdiqlangan
Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana	2021-yil, 27-avgust

Loyiha mazmuni

“Angren Insulation” MCHJ qo‘shma korxonasiga (“Birlamchi qarz oluvchi” yoki “Kompaniya”) yiliga 20 000 tonna issiqlik izolyatsiya mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan yangi zavod (“Loyiha”) uchun texnologik uskuna sotib olishni moliyalashtirish uchun 5 000 000 AQSH dollari miqdorida birinchi navbatdagi ta‘minotli kredit berish.

Loyiha maqsadi

Bu Loyiha (i) xalqaro sertifikatlashtirish qoidalariga to‘liq mos keladigan mahsulotlarning sifat standartlarini takomillashtirish yo‘li bilan ikkilamchi qarz oluvchining raqobatbardoshlik darajasini mustahkamlash, (ii) uglerod chiqindilarini kamaytirish, bu bilan esa, o‘zining energiya tejamkorlik sifatleri hisobiga yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash, (iii) ikkilamchi qarz oluvchilarning foydadorligini oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Shuningdek, ushbu Loyiha O‘zbekistondagi uchta strategik ustuvor yo‘nalishlarning ikkitasi, ya‘ni, (i) xususiy sektorning raqobatbardoshligini oshirish hamda (ii) mamlakatdagi o‘tish davridagi jiddiy kamchiliklarga barham berish orqali, yashil iqtisodiyotga o‘tishni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

O'tish davri ta'siri

ETI 80

Kichik va o'rta biznes korxonalarini bevosita moliyalashtirish mexanizmi (DFF SME) kichik va o'rta biznes korxonalariga o'z tuzilmalarini o'zgartirish, yanada samarali va omilkor faoliyat yuritishlariga ko'maklashish barobarida, birinchi navbatda, ularning raqobatbardoshligini ta'minlashni maqsad qiladi. Qo'shimcha loyihalar esa, ikkinchi darajali maqsad sifatida, o'tish davrining boshqa sifatlariga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi mumkin. Mazkur Loyiha raqobatbardoshlik va ekologik tozalikka intilish kabi sifatarga erishishga ko'maklashadi.

Mijoz haqida

“ANGREN INSULATION” MCHJ QK

“Angren Insulation” MCHJ qo'shma korxonasi – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq 2018-yilda ro'yxatdan o'tgan va shisha toladan yiliga 20 000 tonna issiqlik izolyatsiya mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yangi kompaniya hisoblanadi.

“Ecoclimat” MCHJ qo'shma korxonasi esa O'zbekistondagi “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida 2015-yildan beri ishlab kelayotgan, mamlakatda va butun Markaziy Osiyo mintaqasida shisha toladan yiliga 12 000 tonna issiqlik izolyatsiya mahsulotlari ishlab chiqaruvchi ilk va yagona zavod sanaladi.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

5 000 000,00 AQSH dollari

Ikkilamchi qarz oluvchilarga kapital xarajatlarni moliyalashtirish uchun 5 000 000 miqdorida birinchi navbatdagi ta'minotli kredit

Loyihaning umumiy qiymati

13 700 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati 13 700 000 AQSH dollarini tashkil qiladi.

Ekologik-ijtimoiy xulosa

B toifasi berildi (2019 ESP). Mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotning o'zi bilan bog'liq xavfsizlik masalalari va mamlakatning mehnat sohasida yuqori darajadagi risk profili sababli risk reytingi o'rtacha-yuqori deb baholanadi. Izolyatsion momiq ishlab chiqaruvchi mavjud va yangi zavodlardan foydalanish oqibatida Loyihaning atrof va ijtimoiy muhitga bo'lgan ta'siri har bir obyekt uchun alohida baholanadi va u ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (ESAP) amalga oshirish orqali bartaraf qilinishi mumkin. Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) Atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy himoya boshqarmasi (ESD) COVID-19 qo'llanmasiga muvofiq Loyihaning o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'tkazilib, u Loyihaning ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha so'rovnomasi, qo'shimcha materiallar, mijoz bilan bir necha marta qo'ng'iroqlashish, bank xodimlarining obyektga tashrif buyurib, hoizirda ishlab turgan zavod binosi va qurilayotgan binolar bo'yicha ma'lumotlar to'plashi va fotosuratlariga olish kabi ishlarni o'z ichiga oldi. Ishlab chiqarish jarayoniga ko'p energiya sarflanishi sababli karbonat angdrid gazining

ko'payishi, xavfli materiallar va chiqindilardan foydalanish, atmosferaga zararli gazlarning chiqarilishi, mahsulotning xavfsizligi, shuningdek, xodimlarning salomatligi va mehnat xavfsizligini ta'minlash hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish kabi masalalar aniqlangan asosiy ekologik va ijtimoiy muammolar sirasiga kiradi. Yangi zavodning ishga tushirilishi uchun mahalliy hukumatning ekologik masalalar bo'yicha ruxsatnomasi yetarli bo'ldi va u mahalliy miqyosda Loyihaning atrof va ijtimoiy muhitga bo'lgan ta'sirini baholashning (ESIA) o'tkazilishini talab etmadi. Yuqori haroratli izolyatsion momiqni ishlab chiqarish Yevropa Ittifoqining sanoat chiqindilari bo'yicha direktivasi (IED) talablariga javob beradi va bu orqali yangi Loyiha Yevropa Ittifoqining shisha ishlab chiqarish bo'yicha eng yaxshi ommabop texnologiyalar (BAT) talablariga mos bo'lishi kerak bo'ladi. Pech yetkazib beruvchilarning chang hamda xlorid kislotasi konsentratsiyalari uchun baholari Yevropa Ittifoqining eng yaxshi ommabop texnologiyalari (BAT) belgilagan chegaradan ancha yuqori bo'lsa-da, bu chegara bo'yicha oltingugurt oksidlari va azot oksidlari darajasi biroz yuqori ekanligi aniqlandi. Uchuvchan organik birikmalar (VOC), og'ir metallar va ferroxromlignosulfonat (FCL) bo'yicha baholashlar natijalari keltirilmagan. Zavod foydalanishga topshirilgandan boshlab bir yil ichida Mijozdan qopchali filtr o'rnatish hamda eng yaxshi ommabop texnologiyalar (BAT) bo'yicha mustaqil baholash o'tkazish talab etiladi. Mehnat risklari bo'yicha baholash o'tkazildi va cheklangan resurslar hamda mazkur yuqori darajada avtomatlashtirilgan jarayon uchun zarur bo'lgan alohida ko'nikmalarni hisobga olgan holda, jiddiy muammolar aniqlanmadi. Boshqa ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) choralari ekologik va ijtimoiy jihatlarining boshqaruv tizimlari, materiallarni saqlash tizimlarini takomillashtirish, moddalarning toshib ketishining oldini olish, resurslardan oqilona foydalanish, xodimlarning salomatligi, xavfsizligi va axloq tartib-qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, yong'in xavfsizligini boshqarish kabilarni o'z ichiga oladi. Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (ESAP) imzolashdan oldin Mijoz tomonidan ma'qullanishi talab etiladi.

Texnik ko'mak

(i) Huquqiy masalalardagi maslahatchilar uchun xarajatlarni qoplash uchun YTTB Aksiyadorlarining maxsus fondi (SSF) tomonidan 50 000 yevro ajratiladi. Bunda Mijozning hissasi 33,3% ni tashkil qiladi.

(ii) Shuningdek, YTTBning buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha maxsus dasturi doirasida, mahalliy buxgalteriya hisobining umumiy qabul qilingan hujjatlarini moliyaviy hisobdorlikning xalqaro standartlariga (IFRS) moslashtirish uchun moliyaviy auditor xarajatlarini qoplash uchun 26 000 yevro texnik ko'mak beriladi. Bu mablag'lar Qarz oluvchining 25%li hissasi asosida, Kichik biznega ko'maklashish jamg'armasi tomonidan ajratiladi.

Qo'shimchalilik sharti

YTTBning qo'shimcha shartlariga quyidagilar majmuasi orqali erishiladi: (i) bozordagi tijorat manbalaridan maqbul shartlar asosida, masalan, uzoqroq imtiyoz davri asosida olib bo'lmaydigan moliyaviy mablag'larni taqdim qilish, (ii) mamlakatga oid, tartibga soluvchi, loyihaviy, iqtisodiy va siyosiy risklar sirasiga kiruvchi nomoliyaviy risklarni pasaytirish hisobiga qulay sharoit yaratish va (iii) yuqori standartlar, jumladan, inklyuzivlik va gender standartlarining yuqori darajasiga erishish uchun Loyihani qo'llab-quvvatlash.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Bobur Rahimov
sales.ecover@gmail.com

+998 71 2076776

<http://ecover.uz/index.html>

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobodo tumani, Eski Otchopar ko'chasi, 3-uy

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com electron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarni ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb-saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.